

Date: 5th April-2026

AHOLINING TURLI TOIFALARI BILAN IJTIMOYIY ISH

Hamidov Jamshid

O‘zbekiston milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining turli toifalari, jumladan, bolalar, yoshlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslar, migrantlar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyati, ular bilan ishlashda ijtimoiy xodimlarning faoliyat yo‘nalishlari, ulardagi mavjud muammolarni o‘rganish hamda bartaraf etishdagi asosiy vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aholi, toifa, ijtimoiy xodim, ijtimoiy siyosat, bolalar, yoshlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslar, migrantlar, davlat dasturlari, qatlam, aloqa, zaiflik, bandlik.

Ijtimoiy ish o‘z hayotiy muammolarini mustaqil hal etishga, aksariyat hollarda yashashga qiynalgan insonlarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyatning o‘ziga xos turidir. Jahon tajribasida aholining turli toifadagi qatlamlarini - bolalar, yoshlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslar, migrantlar, muammoli oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar yordamni tashkil etishda - ijtimoiy xodimlar faoliyat olib borishadi¹.

Ijtimoiy sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar faoliyatini tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishining o‘zi ijtimoiy xodimlarga nisbatan ehtiyoj paydo bo‘lishini ta‘minladi.

Ijtimoiy ish – bu individ, guruh yoki jamoatchiliklarga ijtimoiy hayotda o‘zlarini namoyon etish bo‘yicha imkoniyatlarini kuchaytirish yoki tiklashga, ular uchun eng ma‘qul ijtimoiy sharoitlarni yaratishga kasbiy salohiyat bilan yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan faoliyatdir.

Ijtimoiy soha rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamni himoya qilishni kuchaytirish va keksalar hamda imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislar faoliyatiga tegishli².

Boshqacha aytganda, ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda ko‘maklashishga yo‘naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy xodim – bu jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish, odamlarning hayot sifatini yaxshilash va ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga yordam beruvchi mutaxassis. Ijtimoiy xodimlar odamlar va guruhlarining ijtimoiy, psixologik, moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko‘rsatadi. Ular ijtimoiy adolatni ta‘minlash, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida faoliyat yuritadi.

¹ Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 5-bet

² M.X. Ganiyeva, Q.N. Qayumov, M.B. Sherov. — Ijtimoiy ishga kirish. TOSHKENT -2020. 212-bet



Date: 5th April-2026

Bugungi kunda aholi muammolari odamlarning biologik xususiyatlari, insonlarning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy aloqasi bilan bog‘liq. Chunki aholining mehnatga yaroqli qismi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Aynan og‘ir vaziyatga tushib qolgan insonlar aholining zaif toifalarini tashkil etadi.

Zaiflik – bu insonning ruhiy, jismoniy, ijtimoiy tomondan imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy ishning maqsadi aholini jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarni, zaif toifalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgandir.

Zaif qatlam esa, ijtimoiy xodimining obyektini hisoblanadi. Xususan, zaif qatlamlarga iqtisodiy, moddiy, tibbiy, huquqiy yordam berish ham, aynan ijtimoiy ishchi xodimining bosh vazifasidir.

Shu o‘rinda Yangi O‘zbekiston strategiyasida ham aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish muhim omil ekanligi keltirib o‘tilgan va bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan tekin foydalanish uchun zarur sharoitlar yaratish bu boradagi islohotlar ta‘sirchanligini oshiradi³.

Bugungi kunda aholini turli guruhlar va qatlamlarining har bir turli ko‘rinishdagi muammolar duch kelishmoqda, natijada ularda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa ko‘rinishdagi ehtiyojlarga ega bo‘lib, ijtimoiy xodimlar ularga mos ravishda xizmatlar ko‘rsatishadi.

1) bolalar va oilalar ishlashda ijtimoiy xodimlar bolalar huquqlarini himoya qilish va oilaviy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar. Ular oilalarga maslahat berish, qo‘llab-quvvatlash va ta‘lim imkoniyatlarini taqdim etishda yordam berishadi;

2) qariyalar bilan ishlash ijtimoiy ishning alohida yo‘nalishi bo‘lib, ularga sog‘lom va faol hayot tarzini saqlashda yordam berish, reabilitatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi;

3) nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy xodimlar ularning huquqlarini himoya qilish, jamiyatga integratsiyasini ta‘minlash va zarur xizmatlarni ko‘rsatishda faol ishtirok etadilar;

4) migrantlar va qochqinlarga yordam berish, ularning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlash, vaqtinchalik bepul oziq-ovqat, boshpanalar bilan ta‘minlashga kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy ish tamoyillari, bu ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda asosiy yondashuv va qoidalardir⁴. Aholini turli guruh va qatlamlari bilan ishlashda biz quyidagi ijtimoiy ish tamoyillaridan foydalanamiz:

1. Ijtimoiy ishning inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyili, bu har bir insonni jamiyatda teng huquqlarini saqlashdir. Bu tamoyil insonlarning millati, jinsi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa har qanday farqlardan qat’iy nazar, ularning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish va kafolatlashni o‘z ichiga oladi;

³ Sh. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021 yil 201-bet.

⁴ N.M.Latipova, Q.N.Kayumov. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlarini. —T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi”. 2021. - 324 bet.



Date: 5th April-2026

2. Ijtimoiy ishning adolat tamoyili, bu har bir inson teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. Adolat tamoyilli insonlarni har qanday kamsitish va nohaqlikka qarshi turib, insonlarning huquqlari, ehtiyojlari va manfaatlarini teng ko'rib chiqilishiga asoslanadi;

3. Ijtimoiy ishning ijtimoiy mas'uliyat tamoyili, bu shaxslar, tashkilotlar va butun jamiyatning o'zaro hamkorlikda ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, boshqalarga zarar yetkazmaslik va jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishidir; Bu tamoyilga ko'ra, har bir inson va tashkilot o'z harakatlarining jamiyatga ta'siri haqida o'ylashi, ijobiy o'zgarishlar qilishga intilishi va ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shishi lozim;

4. Ijtimoiy ishning empatiya va hamdardlik tamoyili, bu insonlarning bir-birini tushunish, his-tuyg'ularini his qilish va ularning holatiga hamdard bo'lish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tamoyil orqali ijtimoiy ish, inson huquqlari, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarda insonlarga samimiy yordam berish, ularga mehribonlik bilan yondashishga asoslanadi;

5. Ijtimoiy ishning ishtirok etish tamoyili, bu jamiyat a'zolarining muhim qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy muammolarni hal etish va o'z hayotini yaxshilash jarayonida faol qatnashishini ta'minlaydi.

Ushbu tamoyillarning barchasini bugungu kunda yordamga muhtoj shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga, ularning hayot sifatini yaxshilashga va insonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish jarayonida asosiy yo'nalish sifatida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda aholining turli guruh va qatlamlari bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni kiritamiz:

1. Mijozning o'zgarishlariga nisbatan ehtiyoji va birlamchi aloqasining o'rnatilishi. Bunda ijtimoiy xizmatchi yordamga muhtoj kishi o'z muammosini nimada ekanligini anglab yetmaganligi bilan to'qnash keladi. Ijtimoiy xizmatchi mijozning e'tiborini nima sababdan u muammoning mavjudligini inkor etayotganiga qarab taktik ravishda muammoning aynan borligini ko'rsatib berishi mumkin bo'ladi. Ya'ni bunda ijtimoiy xizmatchiga o'z mijoz bilan avvalo yaxshi aloqaga kirishishini talab etadi va ishonchiga kira olishi ham muhimdir;

2. Muammoni tadqiq etish va tushuntirish. Bu jarayon mijoz yuzaga kelgan vaziyatda chindan ijtimoiy xizmatchi unga yordam bera olishini tushungan vaqtdan boshlanadi. Bunda xodim mijozining muammolarini eshitib, unga qanday turdagi yordam kerakligini anglab yetadi;

3. Rag'batlantirish. Ijtimoiy xizmatchi mijoz bilan birgalikda uning holatini baholab, ijtimoiy tashxis qo'yadi. Ya'ni anglab yetganimizdek, yordam turini aniqlaganimizdan keyin unga tashxis qo'yiladi;

4. Muammoni konseptual asoslash. Bunda ijtimoiy xizmatchi va mijoz maqsadlarini aniq belgilab olishlari, unga erishish uslublari va amalga oshiriladigan vazifalar aniqlab olinadi⁵.

⁵ Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik. A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 36-bet.



Date: 5th April-2026

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir inson qadrli va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun ularning ehtiyojlariga e'tibor qaratish zarur. Shu sababli, ijtimoiy ish nafaqat individual darajada, balki jamiyatni barqaror va adolatli rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 5-bet
- 2.M.X. Ganiyeva, Q.N.Qayumov, M.B.Sherov. —Ijtimoiy ishga kirish. TOSHKENT - 2020. 212-bet
- 3.Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021 yil 201-bet.
- 4.N.M.Latipova, Q.N.Kayumov. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. —T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi". 2021. - 324 bet.
- 5.Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik. A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 36-bet.

